

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisining o'rinbosarini qabul qildi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 24-oktabr kuni Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisining o'rinbosari, sanoat va savdo vaziri, qo'shma Hukumatlararo komissiya hamraisi Denis Manturov boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Komissiya faoliyatining asosiy natijalari, shu jumladan savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sohalardagi o'zaro manfaatli hamkorlik loyihalarini ilgari surish masalalari ko'rib chiqildi.

O'zaro savdo hajmini yanada oshirish, sanoatda, yoqilg'i-energetika majmuida, kimyo, farmatsevtika, to'qimachilik, oziq-ovqat va boshqa tarmoqlarda kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish muhimligi qayd etildi.

O'zbekiston va Rossiyaning yetakchi korxonalarini o'rtasidagi amaliy sheriklikni kengaytirish bo'yicha ikki tomonlama dasturni tayyorlashga kelishib olindi.

Manba